



# Qo‘qon DPI

# ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 6/2025

# **Qo‘qon DPI.**

## **Ilmiy xabarlar**



# **Кокандский ГПИ.**

# **Научный вестник**

**№6/2025**

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99</p> <p><b>MUASSIS:</b> Qo‘qon davlat universiteti</p> <p>Qo‘qon DPI. <b>ILMIY XABARLAR-</b> <b>НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.</b> Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Jurnaldan maqola ko‘chirib bosinganda, manba ko‘rsatilishi shart.</p> <p><b>"Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar"</b> ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagি qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagи №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagи 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san’atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.</p> <p>Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: <a href="http://www.kspi.uz">www.kspi.uz</a> <a href="http://journal.kspi.uz">journal.kspi.uz</a></p> <p>ISBN: 978-9943-7182-7-2 “CLASSIC” nashriyoti 2025</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> Qo‘qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva <b>Mas’ul muharrirlar:</b> Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sh.Y.Pulatov <b>Mas’ul muharrir yordamchisi:</b> Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i O.Bazarov <b>Nashr uchun mas’ul:</b> M.I.Sobirova</p> <p><b>TABIYI FANLAR</b> И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) А.Ж.Хусанов-физика-математика фанлари номзоди, доцент (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)</p> <p><b>FILOLOGIYA FANLAR</b> Huseyn Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Потапова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)</p> <p><b>IJTIMOYI FANLAR</b> Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галимова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)</p> <p><b>PEDAGOGIKA FANLAR</b> Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)</p>
--	---



**UDK:** 303.4

**AXBOROT OQIMI JADALLASHGAN VA RAQAMLASHGAN JAMIYAT  
SHAROITIDA PEDAGOG KADRLARGA BO‘LGAN KOMPETENSIYAVIY  
TALABLAR**

*Ibroximov Farxodjon Anvarjon o‘g‘li*  
*CHDPU katta o‘qituvchisi*  
[ibrohimovf2209@gmail.com](mailto:ibrohimovf2209@gmail.com) (50 073 22 09)  
*Orcid ID: [0009-0000-8724-7054](https://orcid.org/0009-0000-8724-7054)*

**Annotatsiya.** Maqolada hayot sur’atlari tezlashgan hamda axborot oqimi jadallahsgan jamiyat sharoitida yosh avlodni jamiyatning sog‘lom qadriyatlar tizimi asosida tarbiyalash mexanizmininig pedagogik jihatlarini tahlil qilish maqsad qilingan. Bunda nazariy manbalarni, o‘quv-me’yoriy hujjatlarni qiyosiy o‘rganish va kuzatish asosiy metod sifatida tanlab olingan. Tadqiqot yakunida bir qator falsafiy fanlarni, xususan Ijtimoiy falsafa, Etika, Estetika fanlarini o‘qitish jarayonlarida zamonaviy pedagogik yondashuv va metodlarni qo‘llash imkoniyatlarini pedagog kadrlarga bo‘lgan kompetensiyaviy talablarga vertikal va gorizontal integratsiyalash orqali ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlari ham qiyosiy tahlil qilingan. Xorijiy tajriba asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ularga xalqaro standartlarga mos ravishda ishlash imkonini beradi. Bu jarayon, nafaqat pedagogik mahoratni, balki talabalarining ijodiy va tanqidiy fikrlesh qobiliyatlarini rivojlantirishga, qolaversa raqobatbardosh va zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Axborot oqimi jadallahsgan va raqamlashgan olamda bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar ulardan nafaqat chuqur nazariy bilim va kasbiy mahoratni, balki amaliy ko‘nikmalar, ijodkorlik, tanqidiy va mustaqil fikrlesh qobiliyatini ham muntazam rivojlantirib borishni talab qiladi. Zamonaviy pedagoglar ta’lim jarayonining uzviyligi va uzlusizligini ta’minalash, o‘z bilimlarini yangilash va ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi bugungi kunning talabidir. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kompetensiyalarga mos holda tayyorlash, mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bevosita bog‘liq.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy kompetentlik, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, malaka talablari, Amerikancha va Yevropacha yondashuvlar, uzlusiz ta’lim, ekstremal kompetentlik, qiyosiy tahlil qobiliyati.

## **COMPETENCY REQUIREMENTS FOR PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE CONDITIONS OF AN ACCELERATED AND DIGITIZED SOCIETY OF INFORMATION FLOW**

**Abstract.** The article aims to analyze the pedagogical aspects of the mechanism for educating the younger generation based on society's healthy value system, amidst an accelerated pace of life and intensified information flow. For this purpose, comparative study and observation of theoretical sources and educational-normative documents were chosen as the main methods.

The study scientifically analyzed the possibilities of applying modern pedagogical approaches and methods in the teaching processes of several philosophical sciences, particularly Social Philosophy, Ethics, and Aesthetics, by vertically and horizontally integrating them into the competency requirements for pedagogical staff. Furthermore, the possibilities of utilizing foreign experiences in shaping professional competencies in future teachers were also comparatively analyzed. Training future teachers based on foreign experience enables them to work in accordance with international standards. This process serves not only to develop pedagogical skills but also to foster students' creative and critical thinking abilities, and moreover, to prepare specialists who can meet competitive and modern educational needs.

In an increasingly digital and information-intensive world, modern requirements for future teachers demand that they continuously develop not only deep theoretical knowledge and professional skills but also practical skills, creativity, and critical and independent thinking abilities. It is a modern imperative that contemporary educators contribute to the sustainable development of society by ensuring the integrity and continuity of the educational process, updating their knowledge, and applying advanced technologies. This process is directly linked to preparing future teachers in line with modern competencies and enhancing the quality and effectiveness of education, which are essential for the country's development.

**Key words:** professional competence, training of competitive personnel, qualification requirements, American and European approaches, continuous education, extreme competence, ability of comparative analysis.

### **КОМПЕТЕНТНОСТНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКИМ КАДРАМ В УСЛОВИЯХ УСКОРЕННОГО ИНФОРМАЦИОННОГО ПОТОКА И ЦИФРОВИЗАЦИИ**

**Аннотация.** В статье ставится цель проанализировать педагогические аспекты механизма воспитания молодого поколения на основе здоровой системы ценностей общества в условиях ускоренного темпа жизни и усиленного информационного потока. Для этого в качестве основного метода выбрано сравнительное изучение и наблюдение теоретических источников и учебно-нормативных документов. В результате исследования были научно проанализированы возможности применения современных педагогических подходов и методов в процессах преподавания ряда философских наук,

в частности социальной философии, этики и эстетики, путем их вертикальной и горизонтальной интеграции в компетентностные требования к педагогическим кадрам. Также сравнительно проанализированы возможности использования зарубежного опыта в формировании профессиональных компетенций у будущих учителей. Подготовка будущих учителей на основе зарубежного опыта позволяет им работать в соответствии с международными стандартами. Этот процесс служит не только развитию педагогического мастерства, но и формированию творческого и критического мышления студентов, а также подготовке специалистов, способных отвечать конкурентным и современным образовательным потребностям. В мире с ускоренным информационным потоком и цифровизацией современные требования к будущим учителям требуют от них постоянного развития не только глубоких теоретических знаний и профессиональных навыков, но и практических умений, креативности, критического и независимого мышления. Современные педагоги должны способствовать устойчивому развитию общества, обеспечивая целостность и непрерывность образовательного процесса, обновляя свои знания и применяя передовые технологии – это требование сегодняшнего дня. Данный процесс напрямую связан с подготовкой будущих учителей в соответствии с современными компетенциями и повышением качества и эффективности образования, что необходимо для развития страны.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, подготовка конкурентоспособных кадров, квалификационные требования, американские и европейские подходы, непрерывное образование, экстремальная компетентность, способность к сравнительному анализу.

## Kirish

Ta’lim tizimi mamlakatning taqdirini belgilaydigan eng asosiy omil bo‘lganligi bois tizimni uzluksiz tarzda rivojlantirib borish, tizimda yuqori bilim va malakaga, qolaversa yuksak axloqiy fazilatlar hamda vatanparvarlik tuyg‘usiga ega insonlarning faoliyat yuritishi uchun barcha sharoitlarning yaratib berilishiga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Sohada faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning o‘z bilim va malakalarini muntazam oshirib borishlari ular mehnatining samaradorligini va albatta buning barobarida jamiyat va mamlakatning taqdirini belgilaydi. Shu bois pedagoglarning kasbiy kompetentligini hamda uni yanada rivojlantirish masalalarini tadqiq etish barcha davrlarda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan.

Rivojlangan mamlakatlarda ham yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish davlat ta’limi standarti, malaka talablarida qo‘yilgan talablarga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Jumladan, 1996-yilda Yevropa Kengashi tomonidan Bernda o‘tkazilgan “Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” simpoziumida zamonaviy bitiruvchilarning quyidagi 5 ta muhim kompetensiyalari aniqlandi[1].

Bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yiladigan kompetensiyaviy talablar bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, V.Andreyev, V.Bukin, O.Gazman,

A.Mudrik kabi xorijiy hamda R.Djurayev, R.Ishmuxamedov, N.Sayidaxmedov, Sh.Abdullayeva, B.Xodjayev, Z.Axrорova, U.Tolipov, R.B.Tursunov kabi mahalliy olimlarning ilmiy, ilmiy-metodik ishlarida o‘z aksini topgan. Tadqiqotchi Sh.Abdujalilova O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davrida oliy ta’lim o‘qituvchisiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarning manbai deb quyidagi hujjatlarni ko‘rsatadi:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Insonparvarlik, ezgulik va bунyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir” kitobi;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmoni.

### **Metodologiya**

Maqolani tayyorlashda muammoga oid sotsiologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish hamda qiyosiy tahlil qilish; DTS, o‘quv rejalarini va dasturlari, darslik hamda o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tahliliy o‘rganish; ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so‘rov, test) usullaridan foydalanilgan.

### **Natijalar**

Mamakatimizda ham xalqaro talablar asosida yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash strategik maqsad sifatida belgilab olindi. Bularning asosida esa, albatta ta’lim sohasi vakillariga qo‘yilgan kompetensiyaviy talablar hamda ularning qay darajada shakllantira olishimiz bilan belgilanadi. Bu sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, uzlucksiz va tizimli amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi” tasdiqlandi. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rtta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilash hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi maqsad qilingan. Mazkur farmonda xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish vazifasi belgilangan bo‘lib, bu o‘z navbatida pedagoglardan yuqori kasbiy kompetensiyani, qolaversa o‘zining malakasini muntazam tarzda rivojlantirib borishni talab qiladi[2].

“Kompetensiya” tushunchasi inglizcha “Competence” so‘zdan olingan bo‘lib, “qobiliyat” degan ma’noni bildiradi, shuningdek bu so‘z faoliyatda nazariy bilimlardan maksimal darajada samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni anglatadi[3]. Demak bu so‘z inson ma’lum sohani yaxlit biladigan, tajriba va mahoratga ega bo‘lgan kabi ma’nolarni bildiradi. “Kompetensiya – biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo‘lgan masalalar doirasi” – deb ta’rif bergen rus psixolog B.D.Elkonin[4].

Kompetensiyalar ta’rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud: Xususan, Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi.

“Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi ya’ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko‘riladi”[5]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son harori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartida kompetensiya tushunchasi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflangan[6].

Pedagog o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi – kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan pedagogning kasbiy kompetensiyasini o‘zлari tadqiqot olib borayotgan soha nuqtai nazaridan yondashib turlicha qamrovda yoritishga harakat qilganlar. Jumladan, “Pedagogik kompetentlik” nomli uslubiy qo‘llanmada muallif quyidagi komptensiyaviy talablarni keltiradi:

- “dunyo va mamlakatda ta’lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta’minlashga, uzviylik va uzlucksizligiga amal qilish;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish va pedagogik faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- talabalarning ruhiy-tarbiyaviy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta’lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;
- o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- o‘quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog‘ligi, texnik hamda axborot xavfsizligini ta’minlashga tayyor bo‘lish;
- dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shu bilan birga mediasavfsizlik me’yorlariga ham amal qilish. Mafkuraviy immunitet tushunchasining mazmun-mohiyati va zaruratini yoritib bera olishi;
- ta’lim olish va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida elektron resurslar, o‘quv dasturlari va boshqa o‘quv-metodik mahsulotlarning afzalliklarini anglash va qo‘llashni o‘rgatish;
- masofadan ma’lumot almashish lokal va global tarmoqda ma’lumot qidirishni va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatardan saqlanish hamda mediamadaniyat qoidalariga rioya qilish”[7].

O‘zbekiston Respubliksi Prezidentining PF-6108-sonli Farmonida hozirgi zamon o‘qituvchilariga quyidagi talablar qo‘yilgan:

- yangi tashabbus va g‘oyalar bilan chiqish;
- intellektual va ma’naviy salohiyatlilik;
- hayot davomida o‘qish va tajriba ortirish;

- individual tajriba va uslubga ega bo‘lish; Bu talablarni biz oliy ta’lim o‘qituvchisining professiogrammasi sifatida qabul qilamiz.

Hozirgi zamon oliy ta’lim o‘qituvchisi quyidagi tamoyillarga tayanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- barchaga oliy ta’lim berish g‘oyasining ustuvorligi;
- barchaga sifatli va samarali ta’lim berish;
- faoliyatda yangilik va ijodkorlikka qat’iy amal qilish;
- munosib shogirdlar voyaga yetkazish;
- sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish.

Zamonaviy jamiyatda falsafiy fanlar o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar ularda quyidagi kompetentlik sifatlari shakllanishi talabini qo‘yadi:

a) Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda boshqa subyektlar bilan faol muloqotga kirisha olish. Ijtimoiy kompetentlik bu shaxsni yangidan paydo bo‘lgan, umumiylashtirilgan, ijtimoiy o‘zaro bog‘langan sifatlari bo‘lib, ijtimoiy rollarini muvaffaqiyatli bajarishga, jamiyat va ushbu jamiyat sharoitida effektiv faoliyat uchun zarur jihatlardir. Shunga muvofiq, bo‘lajak pedagogni ijtimoiy kompetensiyalari deganda, kasbiy pedagogik faoliyat davomida kerakli, unumli sifatlar ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik bilimlar, mahorat, ko‘nikma, faoliyat usuli tushuniladi. Ayniqsa, falsafiy fanlar o‘qituvchilaridan boshqa soha vakillariga nisbatan ko‘proq ijtimoiy faollik talab etiladi. Masalan, barcha ijtimoiy sanalar, voqeа-munosabatlar bilan talabalarni e’tiborini o‘rganilayotgan mavzuga bog‘lagan holda birlashtira, jipslashtira oladigan tashabbusga – dialektik tafakkurga ega bo‘lishi lozim;

b) Maxsus pedagogik kompetentlik – kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, o‘z falsafiy bilim, ko‘nikma va malakalarini uzlucksiz rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan samimiy muloqotni tashkil etish, ularning psixologik xususiyatlaridan xabardor bo‘lishga intilish. Ma’lumki, inson ruhiyatida o‘zi uchun ideal sifatida tasavvur qiladigan shaxslar bo‘ladi, bu ideallar insonning yoshi kattalashgani va tajribasi kengaygani sari o‘zgarib boradi. Talaba pedagogdagi muammoni ijobiy tarzda hal qilishdagi yondashuvidan hayratlanishi nafaqat ana shu pedagog shaxsiga, qolaversa, uning fan predmetiga bo‘lgan munosabatini ham tubdan o‘zgartira oladi. Shu boisdan ham mazkur kompetensiyaviy talab barcha o‘qituvchilar tomonidan bajarilishligi muhim sanaladi;

- metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish;

- informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim ma’lumotlarni kam vaqt sarflagan holda topish, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, samarali foydalanish hamda maqbul tarzda auditoriyaga yetkaza olish;

Zamonaviy kompetensiyalarga ega ta’lim subyektlarini tayyorlash mexanizmlari bu avvalo ta’lim tizimidagi ta’lim oluvchilarning zamonaviy axborot muhitiga ega bo‘lishlaridan iborat.

Bugungi kunda axborotdan tez va unumli foydalanish, qayta ishlash qobiliyati juda qimmatli boylik bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, ularni o‘qituvchi tomonidan qo‘llash majburiy kompetensiyaviy talablardandir. Bu esa yosh avlodga elektron ta’lim o‘qitishning asosiy jihatlarini izohlab, ta’lim sifatini oshirish imkonini bermoqda. “Axborotga ega bo‘lishlik – bu boylik, axborotlarni kerakli va nokerak turlarga ajrata olishlik – kattaroq boylik, kerakli axborotni tezlik bilan katta auditoriyaga yetkazish yoki zarur vaqtida sir saqlay olishlik – eng katta boylik” deya ta’kidlanadi, Germaniya oliy ta’lim muassasalari uchun yozilgan “Politologiya” darsligida. Kelgusi ming yillikda kelajagi porloq jamiyatda yashab ijod qiladigan zamonaviy kasb egasi mustaqil, faol harakat qila olishi, axborot bilan ishlash, qat’iy qarorlar qabul qilish, o‘zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashuvchan hamda yuqori malakaga ega bo‘lishi kerak. Texnologik taraqqiyotning barcha yangiliklari yoshlar tomonidan alohida ishtiyoq bilan kutib olinmoqda. Shuning uchun ham talabalarning qiziquvchanligi va yuqori bilish faolligidan ularni maqsadli rivojlantirish uchun foydalanish juda muhimdir.

Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning zamonaviy usullaridan biri ta’limni axborotlashtirish, xususan, axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirish – bu ta’lim faoliyatini axborotlashtirish, o‘quv natijalarini nazorat qilish va o‘lchash, ta’lim jarayonlari, darsdan tashqari, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy faoliyat, shuningdek tashkiliy va boshqaruv faoliyati.

O‘quv jarayonida axborot texnologiyalari mavzularni o‘rganishda ma’lumotni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi va darslar davomida o‘qituvchilarning ishini osonlashtiradi. Ta’lim vositalarini axborotlashtirish ta’limning yangi sifatiga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Bu bilim olishda xilma-xillikka yordam beradi va muqarrar ravishda talaba-o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha tushunchalarini chuqurlashtiradi.

- kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, uni ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish. Masalan, talaba-o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlarni shakllantirishda ularning jamoa bo‘lib ishlashiga, jamoada “kuch va imkoniyatlar nisباتи”ni muvozanatda bo‘lishiga, topshiriq mavzusining yoshlarning bevosita bugungi hayotiy muammoli masalalaridan tanlanishiga e’tibor qaratish; Uni bajarish jarayonida oila a’zolari, jamiyatdagi boshqa kishilar bilan faol muloqotga kirishishlikka undash;

- innovatsion kompetentlik – falsafiy ta’lim jarayonini takomillashtirish, ta’lim sifatini va samarasini yaxshilashga doir yangi g‘oya, texnologiya va metodlarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tadbiq etish. An’anaviy tarzdagi jarayonga nisbatan yondashuvning

muayyan darajada o‘zgartirib borilishi jarayonning qiziqarli tarzda borishini hamda samarali yakuniy natijani kafolatlaydi, deb ayta olamiz;

- kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy motivatsion ta’sir ko‘rsata olish.

d) Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, o‘z bilim va ko‘nikmalarini, malaka darajasini muntazam boyitib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini to‘la namoyon qila olish, bir so‘z bilan aytganda “hayot davomida ta’lim olish” tamoyiliga amal qilish;

e) Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan samarali foydalana olish. Xususan, manbalar bilan ishlay olish, turli ijtimoiy tarmoqlardagi axborot-yangiliklarni (masalan, tafakkur egalari, filosof kundaligi), faylasuf.uz, pedagog.uz, ziyo.uz kabi saytlarini muntazam kuzatib borish ko‘nikmasining shakllanganligi, yangi texnologik yutuqlarni samarali pedagogik faoliyat olib borish uchun yo‘naltira olish, shuningdek hamkorlikdagi faoliyat uchun turli uchrashuvlarni offline, imkon bo‘lmasa, online tarzda tezlik bilan tashkil eta olish;

f) Ekstremal kompetentlik – turli favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqanda), pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. Bu kompetentlik ayniqsa Covid-2019 pandemiyasi davrida boshqa soha vakillari kabi pedagoglar uchun ham muhimligi bevosita namoyon bo‘ldi.

### **Muhokama**

Shaxsiy samaradorlik kompetensiyalari pedagogning shaxsiy fazilatlari bilan birga o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- yetuklik, o‘sishga intilish, masalan, kasbiy qadriyatlarni izlash, ijodiy qobiliyat;
- yetarli darajada o‘zini o‘zi anglash va o‘ziga ishonch;
- moslashuvchanlik, o‘zgartirish istagi;
- kasb etiketini bilish;
- stressga qarshi o‘z-o‘zini boshqarish;
- tashqi ko‘rinish – imidj.

Yuqoridagi kompetensiyaviy talablarni o‘zida munosib tarzda shakllantira olish hamda muntazam takomillashtirib borish bugungi kun pedagogi, ayniqsa falsafiy fan o‘qituvchilari oldidagi muhim ma’suliyat hisoblanadi. Zero “Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”[8]. Shu boisdan ham, muntazam tarzda, avvalo falsafiy fanlar o‘qituvchilarining, qolaversa barcha predmetlar mutaxassislarining o‘zaro tajriba va metod almashishlari uchun offline yoki online tarzda mashg‘ulotlar, ta’lim muassasasi faoliyatiga asoslangan treninglar o‘tkazish maqsadga muvofiqliрdir.

Mustaqil fikrlash va sog‘lom dunyoqarash ijtimoiy ongning ajralmas qismi bo‘lib, u shu jamiyatning farovonligi va barqaror taraqqiyotining kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Shu

munosabat bilan yoshlarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamiyatda sog‘lom dunyoqarashni to‘la qaror toptirish falsafiy ta’limning sifatiga, bu esa soha vakillarining o‘zlariga qo‘yilayotgan kompetensiyaviy talablarni qay darajada shakllantirishiga bog‘liq.

Falsafiy fanlar o‘qituvchisidan talab qilinadigan kompetensiyaviy talablarni kengaytirgan holda quyidagicha bayon qilishni ma’qul topdik:

- o‘z sohasi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, sohaning konseptual-g‘oyaviy jihatlarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi;
- sohadagi yangiliklar, shuningdek mamlakatdagi islohotlar mazmuni-mohiyati va ijtimoiy zaruratini anglab yetish;
- qiyosiy tahlil qila olish qobiliyatining shakllanganligi;
- ijtimoiy hayotdagi turli voqeа-hodisalarga shaxsiy munosabat bildira olish;
- dars mashg‘ulotlarini qiziqarli tarzda tashkil eta olish;
- har bir mavzuni auditoriya manfaatlaridan kelib chiqib rivojlantiruvchi savol va keyslar bilan boshlash, dars davomida bu savollarga javoblarni birma-bir berib borish;
- o‘rganilayotgan mavzuning talaba-o‘quvchilar hayotida nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligini ochib bera olish;
- mavzuga aloqador jarayonlar haqida fikr bildirish uchun ma’naviy haqdorlik hissiga ega bo‘lish;
- talaba-o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda sog‘lom dunyoqarash shakllarinishiga xizmat qiluvchi turli innovatsion tashabbuslarni ilgari surish;
- an’anaviy va noan’anaviy ta’lim usullaridan hamohang tarzda, samarali tarzda foydalana olish.

Yuqoridagi kasbiy kompetensiyalarni barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qituvchilarida shakllantira olishimiz oldimizda qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimizda asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida xorijiy tajribani o‘rganish va uni mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish pedagogik yondashuvlarning sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonning bo‘lajak o‘qituvchilar uchun afzallikkari va tatbiq etish yo‘nalishlari quyidagicha:

1. Xorijiy ta’lim tizimlarining ilg‘or tajribasi va bo‘lajak o‘qituvchilar uchun darslar. Xalqaro miqyosdagi ilg‘or ta’lim tizimlarining tajribasi bo‘lajak o‘qituvchilarga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan:

- **Finlandiya ta’lim tajribasi:** talabalarni mustaqil ta’lim olishga va bilimlarni amalda qo‘llashga o‘rgatish, bo‘lajak o‘qituvchilarda fanlarni hayotiy masalalar bilan bog‘lash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.
- **Singapur modeli:** yetakchilik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarga innovatsion metodlarni qo‘llashda amaliy bilim beradi.

- **AQShning STEM dasturlari:** talabalarni real hayotdagi muammolarni yechishga o‘rgatish, bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z darslarini amaliy jihatdan qiziqarli tashkil etishga imkon beradi.

2. Xalqaro standartlarni integratsiya qilish. Xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi:

- **YUNESKO tavsiyalari:** Bo‘lajak o‘qituvchilarga tanqidiy fikrlashni o‘rgatish va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalar beradi.
- **OECD modeli:** Bo‘lajak o‘qituvchilarni XXI asr kompetensiyalariga mos ravishda tayyorlash, jumladan, raqamli savodxonlik va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish.
- **Yevropa Ittifoqi:** Mahalliy o‘qituvchilarni xalqaro me’yorlarga moslashtirish orqali o‘qituvchilik kompetensiyalarini rivojlantirish.

3. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashishning bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ahamiyati. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda xorijiy hamkorlikni rivojlantirish ularga xalqaro darajadagi bilim va ko‘nikmalarni olish imkonini yaratadi:

- **Seminar-treninglar:** Xorijiy tajribaga asoslangan seminarlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarga ilg‘or pedagogik yondashuvlarni o‘rgatish.
- **Mutaxassislarни jaib qilish:** Xorijiy mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladigan treninglar orqali mahalliy o‘qituvchilarga innovatsion metodlarni amalda sinab ko‘rish imkoniyatini taqdim etish.

## Xulosa

Xorijiy tajriba asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ularga xalqaro standartlarga mos ravishda ishslash imkonini beradi. Bu jarayon, nafaqat pedagogik mahoratni, balki talabalarning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, qolaversa raqobatbardosh va zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Axborot oqimi jadallahsgan va raqamlashgan olamda bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar ulardan nafaqat chuqr nazariy bilim va kasbiy mahoratni, balki amaliy ko‘nikmalar, ijodkorlik, tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi. Zamonaviy pedagoglar ta’lim jarayonining uzviyligi va uzluksizligini ta’minalash, o‘z bilimlarini yangilash va ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi zarur. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kompetensiyalarga mos holda tayyorlash, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bevosita bog‘liqdir.

## Adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.
3. OECD Reviews of Evaluation and Assessment in Education “Synergies for Better Learning”. OECD publishing, PARIS CEDEC. (2013) 148-p.
4. **Toshtemirova S.A.** (2022) “The need to improve social competences in future teachers”. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, (2022/1) Article 4.
5. **Mualliflar jamoasi.** (2022) “Pedagogik kompetentlik” // *O‘quv-uslubiy majmua*. 6-bet
6. Элконин Б.Д. (2002) “Понятые компетентности позиция развивающего обучения”. Москва.
7. **O.M. Jabborova, F.U. Jumanova, Sh.R. Mahkamova.** (2020) **Formation of Artistic Perception of Future Teachers.** International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 4087-4095.
9. **M.Axmedova.** (2018) **Pedagogik kompetentlik.** *Uslubiy qo‘llanma*. 8-bet

*Kimsanova Nozima Maxfuzullo kizi***PEDAGOGIK ATAMA VA TUSHUNCHALAR: FARQLI VA UMUMIY JIHATLARI XUSUSIDA***Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

209

**NEYROPEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ORQALI O‘QUVCHILARNING ADABIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH***Duschanova Nilufar Sabirbayevna*

215

**EVRISTIK YONDASHUV ASOSIDA TA’LIMIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBALAR***Ergasheva Zarnigor Xasanjon qizi*

221

**AXBOROT OQIMI JADALLASHGAN VA RAQAMLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA PEDAGOG KADR LARGA BO‘LGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLAR***Ibroximov Farxodjon Anvarjon o‘g‘li*

226

**ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ***Fariida Fariodovna Vалиева*

237

**JAVASCRIPT FREYMWORKLARINI O‘RGATISHDAGI MUAMMOLAR VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR***Turg‘unaliyev Shohruz Abduno‘mon o‘g‘li*

243

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA AXBOROT MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA UNING AHAMIYATI***Qilichev Nodirjon Abrarovich*

248

**SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI***Otayeva Salamat Sabirovna*

253

**KASB-HUNAR MAKTABLARI GUMANITAR FAN O‘QITUVCHILARINING AKT SAVODXONLIGINI BAHOLASHDA ELEKTRON PORTFOLIONING AHAMIYATI***Ilmurodova Dilobar Hamzayevna*

260

**KAHOOT PLATFORMASIDAN FOYDALANGAN HOLDA VIKTORINALAR TASHKIL QILISH IMKONIYATLARI***Qosimov Abdulaziz Obidjon o‘g‘li*

265

**“TEACHER EMOTIONAL BURNOUT AND ITS IMPACT ON EDUCATION: UNDERSTANDING CAUSES AND SOLUTIONS”***Karabayeva Munisa Tulqin kizi*

269

**AI BIAS AND ETHICS IN EDUCATION: A NEW DEBATE***Komilova Hilola*

274

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI LOYIHAVIY-KONSTRUKTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI***Uzokov Sherzod Xamidovich*

279

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA PEDAGOGIK JAMOANI MAQSADLI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH: ZAMONAVIY MEXANIZMLAR VA STRATEGIK YONDASHUVLAR***Kurbanov Muzaffar Ummatovich*

284

**QURILISH MUHANDISLIGI: QURILISH MATERIALLARI, BUYUMLARI VA KONSTRUKSIYALARI TA’LIM YO‘NALISHI MALAKA TALABLARINING MAZMUNI VA TA’LIM JARAYONIDAGI O‘RNI***Kushbakova Barno Batirkulovna*

293